

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.T.Zokirov	
Lingvistik interferensiyaning mohiyati hususida	939
N.R.Umarova, O.T.Maxmudova	
O'zbek tilshunosligida nutq tovushlarining tasnifi masalasi	944
M.A.Matmusayeva	
O'yin nomlarida lingvomadaniy xususiyatlarning ifodalanishi	949
D.M.Buzrukova	
"Muhabbat" konsepti hissiy olam manzarasining muhim elementi sifatida	953
N.A.Ibragimova, N.D.Axmedova, A.Sh.Tursunov	
Tilshunoslikda modus tushunchasi	957
S.M.Zokirova G.Sh.Xusanova	
Sosiolingvomadaniyatshunoslik kontekstida bolalar o'yinlari tushunchasi	961
D.M.Yuldasheva	
Bolalarga xos matnlarda realiyalarning ifodalanishi	966
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi	971



UO'K: 373.3.016

O'YIN NOMLARIDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARNING IFODALANISHI**ВЫРАЖЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В НАЗВАНИЯХ ИГР****THE EXPRESSION OF LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES IN THE NAMES OF GAMES****M.A.Matmusayeva** 

Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim sohasida qo'llaniladigan o'yin nomlari lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, nomlardagi milliylik, xalq qadriyatlari bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olingan. Maktabgacha ta'lim terminologiyasida o'yin yetakchi komponent sanalib, beshta rivojlanish sohasi faqat o'yin orqali shakllantiriladi. Ta'kidlash joizki, o'yin nomlari lingvomadaniyatda realiyalar sifatida talqin etilgan. Takror yordamida yasalgan o'yin nomlari serunum yasallish hisoblanadi. O.Safarovning "O'zbek xalq bolalar o'yinlari" nomli kitobida takror holda keltirilgan bir qator o'yinlar berilgan.

Аннотация

В данной статье проведен лингвокультурный анализ игровых названий, используемых в сфере дошкольного образования, рассмотрены аспекты, связанные с национальностью, народными ценностями в названиях. В терминологии дошкольного образования игра считается ведущей составляющей, а пять областей развития формируются исключительно через игру. Стоит отметить, что названия игр интерпретировались в лингвокультуре как реалии. Названия игр, созданных с использованием повторения сыворотка это изготовление. В книге О.Сафарова "Узбекские народные детские игры" приводится ряд игр, которые повторяются.

Abstract

In this article, a linguistic and cultural analysis of game names used in the field of preschool education is carried out, aspects related to nationality and folk values in names are considered. In the terminology of preschool education, play is considered the leading component, and five areas of development are formed exclusively through play. It is worth noting that the names of the games were interpreted in linguoculture as realities. Titles of games created using repetition serum are a fabrication. O. Safarov's book "Uzbek folk children's games" contains a number of games that are repeated

Kalit so'zlar: O'yin nomlari, bola inkluziyasi, shaxs omili**Ключевые слова:** Названия игр, включение ребенка, личностный фактор**Key words:** Game names, child inclusion, personality factor**KIRISH**

Maktabgacha ta'lim sohasida qo'llaniladigan o'yin nomlarini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilishda nomlardagi milliylik, xalq qadriyatlari bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olinadi. Maktabgacha ta'lim terminologiyasida o'yin yetakchi komponent sanalib, beshta rivojlanish sohasi faqat o'yin orqali shakllantiriladi. Ta'kidlash joizki, o'yin nomlari lingvomadaniyatda realiyalar sifatida talqin etilgan. Ba'zi atamalarda lingvomadaniy yondashuvni kuzatish mumkin. Masalan, maktabgacha ta'limning 2006–yilgacha amal qilgan "Uchunchi ming yillik bolasi" dasturida *nogiron bolalar o'yinlari* atamasi mavjud edi. Keyingi "Bolajon" dasturida esa *imkoniyati cheklangan bolalar* atamasi qo'llangan. 2018-yildan amalda qo'llanilayotgan "Ilk qadam" davlat dasturida *bolalarning inkluziy ta'limi, bola inkluziyasi, alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar* kabi atamalar qo'llanilmoqda. Bundan ko'rinadiki, maktabgacha ta'limda shaxs omili ustuvor masala sanaladi. Bu esa maktabgacha ta'lim atamalarining nomlanish jarayoni lingvomadaniy yondashuvga amal qilayotganidan dalolat beradi. Bolaga nogiron deb qarash uni kamsitish belgisi ekanligidan *nogiron bolalar o'yinlari* atamasi *imkoniyati cheklangan bolalar o'yinlariga* almashtirildi. Biroq sohaning rivojlanishi, insonparvarlashuvi sabab, shuningdek, ba'zida insonning ayrim tabiiy nuqsonlari yoki

nosog'lom insonlar sog'lom kishilarga nisbatan ko'proq yutuqlarga erishganligi aniqlangandan so'ng *imkoniyati cheklangan bolalar* atamasi *bolalarning inkluziy ta'limi, bola inkluziyasi, alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar* nomiga o'zgartirildi. Bu nomlanishdagi evfemizmni, ya'ni voqelikni yumshatib aytishni ko'rsatadi. Zero dunyoda imkoniyati cheklangan bolaning o'zi yo'q. Chunki Yaratguchi har bir bolaga minglab imkoniyatlarni hadya etgan, uni kashf etish jamiyatning vazifasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy muhitdagi ilm-fan yutuqlari jamiyatning ma'naviy olamini yuksaltirgani sayin xalq qadriyatlari va milliy urf-odatlar, ayniqsa, xalqning ona tiliga e'tibori masalasi o'zgacha mazmyn-mohiyat kasb eta boshlaydi. Tadqiqotlarda "XX asr so'ngida tilga madaniyat mahsuli", madaniyatning tarkibiy qismi va mavjud bo'lishlik sharti sifatida qaralgan" ligi e'tirof etildi [1]. Xususan, lingvokulturologiya bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar professor D.Xudayberganova tomonidan olib borilib, "ulara tilimizning milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va an'analarimiz bilan bog'liq jihatlari haqida nazariy fikrlar bildirilganki, ularni lingvokulturologiya nazariyasiga oid qarashlarning ilk namunalarini sifatida baholash mumkin. Olima S.M.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbeklarning o'ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etilgan"ligini misollarda izohlaydi[2]. U tilning lingvomadaniy jihatlariga e'tiborni qaratib, lingvokulturologiya tilshunoslikning alohida mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida taraqqiy etganligi, "lingvokulturologiya" atamasi V.N.Teliya rahbarligida Moskva frazeologik maktabidagi ilmiy taraqqiyot natijasida paydo bo'lganligini e'tirof etadi hamda Sh.Safarov, M.X.Hakimov, N.Mahmudov, S.M.Mo'minov, E.Begmatov, Sh.Usmonova, Y.Odilovlarning lingvokulturologiya xususidagi ilmiy qarashlarini tahlil qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktabgacha ta'limda bolalar o'yin nomlari turlicha yasaladi. Ma'lumki, turli usullar yordamida so'z hosil qilinishi **so'z yasash** deb ataladi. O'zbek tilida so'zlar asosan 5 xil usul bilan yasaladi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar bilan yasaladi.
2. So'zlarni qo'shish bilan yasaladi.
3. So'zlarni qisqartirib yasaladi.
4. Bir turkumdan boshqa turkumga so'z o'tishi yordamida yasaladi.
5. So'zlarni takrorlash yordamida yasaladi.

Bu usullar yordamida nafaqat **ot, sifat, fe'l, ravish** turkumiga oid so'zlar yasaladi, balki bolalar o'yin nomlari ham hosil qilinadi.

1. **So'z yasovchi qo'shimchalar bilan so'z yasash**(affiksatsiya yoki morfologik usul): *berkinmachoq -choq (-chiq// -chak) affiksi*. Bu affiks yordamida fe'ldan ot yasalgan. Bunda so'zda asosdan anglashilgan ish-harakatni bajarishga moyillikning kuchlilikini bildiradi. Mazkur affiks ot so'z turkumiga oid leksemalar hosil qilishda bir muncha faol hisoblanadi.. Masalan, **berkinmachoq, quvlashmachoq, yalinmachoq, yashirinmachoq, cheklashmachoq, tarqalmachoch, qo'g'irchoq o'yinlari**

-ma affiksi. Mazkur qo'shimcha yordamida **sanama** so'z o'yini hosil qilingan, ya'ni sana fe'ldan o'yinning nomi yasalgan. O.Safarov sanamalarining bir qancha turlarini keltiradi. **Kumulativ sanamalar, voqeaband sanamalar, so'qma sanamalar**. Tayinishma, tiriltirishma o'yinlari.

-chak affiksi. Bu qo'shimcha erkalatish-kichraytirish ma'nosini ifodalaydi:

Kelinchak rolli –sujetli o'yin. **-chi affiksi**. Do'konchi, po'chtachi rolli –sujetli o'yinlari.

-cha affiksi. Tayoqcha, ko'prikcha, quyoncham rolli –sujetli o'yinlari.

O'zbek tilidagi **-ma** va **-chi (-lovchi)** so'z yasovchi affikslar fe'l asoslariga qo'shilib jarayonning davomiyligi, tugallangan jarayon, uskuna yoki asboblarni nomlash uchun qo'llaniladi. Mazkur qo'shimchalar rolli sujetli o'yinlarning aksariyat qismini hosil qiladi. Bola tilida bog'chachi, quruvchi, mashinachi kabi o'yin nomlarini o'zi yasaydi.

2. **So'zlarni qo'shib, juftlab so'z yasashda** (kompozitsiya yoki sintaktik usul) qo'shma va juft so'zlar yasaladi: *to'ptosh, xommompish*

3. **So'zlar qisqartirib qo'shish** (abbreviatsiya) yo'li bilan ham yasaladi. Bular qisqartma so'zlar (yoki abbreviaturalar) deyiladi. Qisqartirib so'z yasash faqat otlarda uchraydi: STEM **bu — S**

ILMIY AXBOROT

— science, T — technology, E — engineering, A — art va M — math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: **tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika.**

4. **Semantik usul**— so'zlarning bir turkumdan boshqa turkumga ko'chishi yordamida so'z yasalihi: sifat va fe'l otga, son ravishga o'tadi: o'g'il bola (o'g'il-sifat) o'g'li keldi (otga o'tgan). Mazkur usulda o'yin nomining yasalihi kuzatilmadi.

5. **So'zlarni takrorlash yordamida so'z yasalihi.** Bunday so'zlar takrorlanib yangi so'zlar yasaladi: paqpaq (o'yin), tur-tur (turish), bipbip (avtobus), pat-pat.

Takror yordamida yasalgan o'yin nomlari serunum yasalihi hisoblanadi. O. Safarovning "O'zbek xalq bolalari o'yinlari" nomli kitobida takror holda keltirilgan bir qator o'yinlar berilgan: **jigar-jigar, darvoza-darvoza, olatoy –bulatoy, xo 'roz-xo 'roz, jik-jik, duk-duk, shax-shax, dog'-dog' urdi-qochdi, o'tira-o 'tir, o 'tir-tur, labbay-labbay, abo'lakam-dubolakam, tufli-tufli, kunduz-kecha, ajina-bajina, tarvuz-tarvuz, hakka-jukka, jo 'ravoy-jo'ppi, to 'y-to 'y, bola-bola, do'kon-do'kon, doktor-doktor, chichi-chichi, som-som, nuqta-vergul, tuta-tut, almoyi-aljoyi, bozor-bozor, sakra-sakra, tandir-mandir, jami-jam, shtandir-shtandir, qovun-qovun, juma-juman, uy-uy, bululum-bululum, yoshlam-yoshlam, taylam-taylam, tashlim-tashlim, mehmon-mehmon, quyonim-quyonim, shoqol-shoqol, mushuk-sichqon, atala-patala, igna-igna, guldur-guplar**

Fe'lli birikma shaklidagi o'yin nomlari: *ortiqchasini top, juftini top, ortiqcha so 'zni top, mosini tanla, teskarisini top, eslab qol, erkalab ayt, xatoimni top kabi o'yin nomlari.*

Otli birikma shaklidagi o'yin nomlari: *ko'k timsoh, g 'aroyib paxta, suv parisi, buvimga guldasta, jonli hafta, jonli sonlar, kun qismlari, oyimning xislatlari kabi o 'yin nomlarini misol tariqasida keltirish mumkin.*

Jamiyatning madaniy qarashlari, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilvosita bolalar o'yinlariga ham ta'sir ko'rsatadi. O'tgan asrning 80-yillarida bolalar o'rtasida digi-digi, chegarachi, qizillar, urush-urush, gusi-gusi, karavay kabi o'yinlar bolalar o'tasida urf bo'gan. Hozirda esa tetris, switch o'yinlari, bingo, soduku, tik-tac-toe, playstation faol neyronlari, Kanoodle, switch o'yinlari LeapTV o'yinlari –bolalar uchun mos keladigan eng yaxshi virtual olam o'yin platformalari bolalarni erta rivojlantirishga qaratilgan, miya imkoniyatlarini barvaqt uyg'otuvchi mashqlar o'quv o'yinlari bo'lib, ular bolalarning turli ko'nikmalar bo'yicha malakasini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kundagi virtual o'yinlar raqobatlash va ishtiyoqni to'liq qondirish, aniqlash, yodlash, tahlil qilish, hisoblash va vizualizatsiyalash kabi kognitiv jarayonlarni yuzaga chiqaradi. Masalan, bolalar uchun o'quv o'yini, deb belgilangan, mashhur jumboqli video o'yin TETRIS - bu yolg'iz yoki uyda do'stlar bilan o'ynaladigan o'yin hisoblanadi. Tetrisning maqsadi oddiy: bloklarni ekranning yuqori qismidan tashlanadi. Bola bloklarni chapdan o'ngga siljitishi va/yoki ekranning pastki qismidagi chiziqdagi barcha bo'sh joyni to'ldirishi, ularni aylantirishi mumkin. Chiziq gorizontol ravishda to'ldirilganda, ular yo'qoladi va bola ball to'playdi va darajasi ko'tariladi. Bloklarni tushirish tezligi oshganida daraja yuqori bo'ladi.

XULOSA

Bola dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urug'lari kundan-kun o'sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko'rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro'yobga chiqayotganligining guvohi bo'ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o'z bolasining qo'l-oyoq va gavda harakatlarini o'yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati o'yin bilan bog'liq bo'ladi. Asta-sekin o'yin yosh bola hayotining asosiy mashg'ulotiga aylanadi. O'yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir. Bolalar o'yinlari yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология . Ўқув қўлланма. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – 164 б.
2. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – 44 б. <https://www.ispring.ru/elearning-insights/chto-takoe-pedagogicheskiy-dizayn> 2.Yuldasheva D.M.Anthropotsentris Approash To Shildren`S Speesh Study. Sestion 2: Linguistiss Theory,Applied Linguistiss. Sollektion Of Materials Of The International Online Sonferense.Www.Researsh-Support-Senter.Som 2020.92-95
4. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speesh Development Of Presshool Shildren. Epra Internashinal Jurnal Of Multidissiplinary Researsh(Ijmr). Impast Fastor: 7.6.11.November.

5. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зоҳидова. Ўзбек болалар нутқида доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2 (2), 926-931.
6. ЮД Махамдалиевна. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. Ulrich`s Periodicals Directory.
8. ДМ Юлдашева. Синтактик такрорларнинг бадиий-эстетик имкониятлари Международный журнал ИСКУССТВО СЛОВА. 2019.5-son.
9. YD Maxamadalievna. Use of presidential names in uzbek children's texts. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70.-
10. ДМ Юлдашева. Болалар фольклорида креол (уйғун) матннинг ифодаланиши. Молодой ученый, 607-609.